

Qoraqalpog‘iston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar-may oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo‘yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama‘lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-may oylarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasida jami 5 177,7 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 151,3% ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi





Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati

	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5 177,7	151,3
Nukus shahri	886,6	108,5
<i>tumanlar</i>		
Amudaryo	163,1	114,8
Beruniy	179,2	114,8
Bo'zotov	47,0	108,5
Qorao'zak	44,9	104,5
Kegeyli	62,7	110,2
Qo'ng'iro't	330,4	202,3
Qonliko'l	44,7	110,7
Mo'ynoq	1 288,4	1 273,2
Nukus	149,1	109,7
Taxiatosh	146,7	104,3
Taxtako'pir	52,0	101,2
To'rtko'l	387,3	122,1
Xo'jayli	107,2	119,6
Chimboy	98,2	106,2
Shumanay	36,5	110,0
Ellikqal'a	222,4	115,0

2026-yilning yanvar-may oylarida shahar va tumanlar kesimida, xususan, Mo'ynoq tumani (1 288,4 mlrd so'm), Nukus shahri (886,6 mlrd so'm) va Qo'ng'iro't tumanida (330,4 mlrd so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2026-yilning yanvar-may oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 76,1 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 180,2 % ni tashkil etdi;


- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 18,8 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 102,9 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 5,1 % ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 90,7 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-may oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 899,8 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 6,7 martani va ularning umumiy hajmdagi ulushi 28,4 % ga ko'payib, 36,7 % ni tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-may oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 43,6 % i to'g'ri kelib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 20,8 % ga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 102,5 % ni tashkil etgan holda 2 259,1 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

**Shahar va tumanlar kesimida korxonalar turlari bo'yicha
bajarilgan qurilish ishlari**

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Qoraqalpog'iston Resp.	1 899,8	2 259,1	1 018,8	670,4	102,5	108,8
Nukus shahri	90,0	762,6	34,0	1 536,8	97,8	108,5
<i>tumanlar</i>						
Amudaryo	7,8	102,1	53,2	277,8	114,1	107,0
Beruniy	12,3	140,2	26,7	181,3	112,0	110,6
Bo'zotov	2,5	38,4	6,1	393,9	102,9	113,6
Qorao'zak	5,2	31,9	7,8	67,6	111,9	115,0
Kegeyli	8,0	45,1	9,6	190,8	102,3	110,7
Qo'ng'iro't	245,2	70,3	14,9	525,0	73,7	70,2
Qonliko'l	4,9	14,8	25,0	152,0	111,0	104,9
Mo'ynoq	1 228,2	51,0	9,2	4 594,8	78,7	95,2
Nukus	7,1	107,7	34,3	211,2	108,2	103,8
Taxiatosh	14,3	116,4	16,0	44,7	125,0	102,8
Taxtakopir	9,4	34,2	8,4	70,3	111,9	112,2
To'rtko'l	76,2	255,5	55,6	369,3	104,3	107,4
Xo'jayli	17,7	64,2	25,3	1 515,3	100,2	103,7
Chimboy	12,1	34,9	51,2	509,7	102,0	91,7
Shumanay	6,3	15,7	14,5	105,9	118,8	103,5
Ellikqal'a	45,5	153,3	23,6	181,3	104,7	107,3

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 19,7% ni yoki 1018,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 108,8% ni tashkil etdi. Shundan 949,7 mlrd so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 109,1% ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 2,9 mlrd so'mni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 66,2 mlrd so'mni tashkil etdi.



IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);

b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;

d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
D. Abdullaeva

Manzil:
230103, Nukus, A. Dosnazarov
ko'chasi, 97 a-uy
Pochta: info@qrstat.uz
Tel.: +998 (61) 222-75-91
